

PEDAGOGIKADA KICHIK GURUHLARDA ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Qazibekov Musaxon Qudratillayevich.

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pedagogikada kichik guruhlarda ishlashning nazariy asoslari fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari hamda fanni o'qitishda kichik guruhlar metodlardan foydalanishning pedagogik asoslari keltirilgan.

Аннотация: В статье представлены теоретические основы работы в малых группах в педагогике, приоритеты развития науки и педагогические основы использования методов малых групп в преподавании естественных наук.

Annotation: This article presents the theoretical foundations of small group work in pedagogy, the priorities of science development and the pedagogical basis for the use of small group methods in teaching science.

Kalit so'zlar: ta'lim turi, ta'lim shakli, case study, blended learning.

Ключевые слова: тип обучения, форма обучения, прикладные исследования, смешанное обучение.

Keywords: type of education, form of education, case study, blended learning.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish hamda amalga oshirish orqali ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun tajriba maydonchalari barpo etish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish, zamonaviy axborot

texnologiyalari, kompyuterlashtirish va matematik ta'lim tizimini rivojlanib borishi belgilab berilgan.

Bugungi kunda matematikadan nostandart, noanaviy va murakkabroq masalalarni yechish uchun, ularga modellar yasashga doir masalalarning chuqurroq o'rgatilmayotgani o'quvchilarning Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi. Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, YAponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam ubshirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni [his qilib](#), ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986).

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Psixolog A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. faoliyatga kirish;
2. mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;
3. o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi;
4. taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
5. madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
6. o'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
7. o'zini – o'zi ko'rsatuvchi harakatlar;
8. o'zini – o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

Interaktivlik – o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o'taydi.

Hamkorlikda o'qitishning «Birgalikda o'qiyamiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o'quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqni ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilish natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari-komandani taqdirlash, o'quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Erkin fikrlash darslari

Erkin fikrlash darslari ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalar va bu maqolalarning muhokamalariga bag'ishlanadi. Erkin fikrlash darslaridan ko'zda tutilgan maqsad:

1. O'quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.
2. O'quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.
3. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishish.

Munozarali darslarning muvaffaqiyati qo'yidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq:

- ✓ o'quvchilarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga;
- ✓ ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;
- ✓ o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;
- ✓ o'quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga;
- ✓ o'qituvchining iqtidori, e'tiqodi, o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Erkin fikrlash darslarini o'tkazish uchun o'quvchilarga ko'pgina ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishni tavsiya etamiz. Mavzu: Geometrik

material.Uchburchak va uning turlari.Uchburchak yuzi.Katakli qog'ozda yuzlarni hisoblash.

Darsning tashkiliy qismiga 1 daqiqa ajratiladi. So'ngra o'qituvchi uyga berilgan vazifalarni tekshiradi va o'quvchilarning hatolarini to'g'rilyadi, bunga 5 daqiqa vaqt ajratadi. Keyin o'qituvchi doskaga bugungi o'tiladigan amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha turli ko'rinishdagi, turli qiyinlikdagi misollar danishlab ko'rsatadi, tushuntiradi va o'quvchilarga tushunmagan joylarini so'rashlarimumkinligini aytadi. O'quvchilar tushunmay qolgan joylaridan o'qituvchiga savollar beradi so'ng o'qituvchi ularning savollariga to'liq javob berib o'tadi. Bunga 15 daqiqa vaqt yetadi.

Misol uchun o'qituvchi tushuntirgan misollar:

Xisoblang:

O'qituvchi doskada ishlab ko'rsatgan va tushuntirgan misollarini doskadan o'chirmagani ma'qul, o'quvchilar dars davomida undan foydalanadilar. Matematika xonalarida formulalar yozilgan devoriy gazetalar bo'ladi yokibo'lmasa o'qituvchi avvaldan tayyorlab qo'ygan logarifmik formulalar yozilganplakatni o'quvchilar foydalanishi uchun xonaga dars davomida osib qo'yadi.

Taxminan xonada 20 ta o'quvchi bo'lsa o'qituvchi ularni 5 tadan 4 ta guruhga ajratadi va har bir guruhga avvaldan tayyorlab qo'yilgan tarqatma materiallarni beradi. Bu materiallarda 5 tadan va 5 xil qiyinlikdagi misollar bo'ladi. Har bir guruhning olgan topshiriqlari teng kuchli bo'ladi.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.

1976 yili Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijobiy ishiga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar xar bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, xar bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik

guruhlarda topshiriq yuzasidan muzokara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv baxsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajarilgan mustaqil faoliyatning natijasi, yakuni saqlanadi. Hamkorlikda ishash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi xar bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mexnat qilishga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yani va kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirilishiga bog'lik bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha metodlarning o'ziga xos xususiyati, maqsad va vazifalarining umumiyliigi, o'quvchilarning tahsil olish va muloqotdagi shaxsiy ma'sulyatini taqozo etishi, shuningdek, muvaffaqiyat qozonishga bir xil imkoniyatlarning mavjudligidir. Hamkorlikda o'qitish negizida musobaqa emas, balki hamkorlikda aqliy mexnat qilib, tahsil olish jarayoni yotadi.


O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- ✓ qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganishni aniqlaydi va mazkur dasrlarni taqvim-rejada belgilaydi;
- ✓ ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlaydi;
- ✓ hamkorlikda o'qitish metodidan foydalanib o'tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishni loyixalashtiradi;
- ✓ yangi mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test savol-topshiriqlarini tuzadi.

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. “Kichik guruhlarda ishlash”

metodi qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta‘lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta‘lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- ✓ o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- ✓ muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- ✓ vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- ✓ barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- ✓ o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ✓ ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- ✓ barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- ✓ guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- ✓ guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. TDIU.-Toshkent 2010 y. 148b.
- 2. Rakhmonkulov, F. (2020). TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VIRTUAL MUHITNI SHAKLLANTIRISH. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(4).
- 3.Sardor Usarov, Gavhar Mirsaidova “TA’LIMDA KOMPETENTLI YONDASHUV. KOMPETENTLIK VA KOMPETENSIYA HAQIDA.” Журнал математики и информатики, 2021 14-bet.
- 4. Эргашев Ж. “Математик анализ курсини ўқмтишда ахборот коммуникатсияси технологияларидан фойдаланиш” “Педагогик маҳорат” илмий-услубий журнал, Бухоро, 20013й, №3

- 5. Эргашев Ж. “ Психолого-педагогические аспекты использования электронных учебных комплексов по математике ” “Россия Федерацияси, Молодой ученый, илмий журнал, 2014 й, №12”
- 6.Qazibekov, M., & Xasanov , J. (2021). TRIGONOMETRIK TENGLAMA VA TENGSIZLIKLARNI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Журнал математики и информатики, 1(2)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/matinfo/article/view/1269>
- 7.Ergashev , B. . . , Qazibekov, M., Usarov , S. . . , & Mamatov , J. . (2021). ZAMONAVIY TA’LIMDA SAMARALI O’QITISHNING BA’ZI SHAKLLARI VA TURLARI. *Журнал математики и информатики, 1(3)*. извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/matinfo/article/view/2563>
- 8.Ahadqulov, A., & Qazibekov, M. (2020). ТАЪЛИМ БЕРИШ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал математики и информатики, 1(1)*. извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/matinfo/article/view/408>
- 9.Pardaboyevna, K. A., & Qudratillayevich, Q. M. (2020). Duties Of Professor-Teachers In The Credit-Module System. *The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11)*, 458-462.
- 10.Алламуродова, Н. Т., Каххоров, М., & Козибеков, М. (2015). Использование ИКТ при изучении математики. *Молодой ученый, (5)*, 6-8.
- 11.Musaxon, Qazibekov. "МАТЕМАТИК ANALIZ KURSIDA MASALALAR YECHISHDA TALABALAR TOMONIDAN YO’L QO’YADIGAN ODATDAGI XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH." *Архив Научных Публикаций JSPI (2020)*.